



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**



**«ICHKI KASALLIKLARNI DIAGNOSTIKASI  
VA DAVOLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI»  
XALQARO ILMYIY-AMALIY ANJUMANI  
TEZISLAR TO'PLAMI**

**2022 yil 17 may**

**СБОРНИК ТЕЗИСОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ  
НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ  
«АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ДИАГНОСТИКИ  
И ЛЕЧЕНИЯ ЗАБОЛЕВАНИЙ  
ВНУТРЕННИХ ОРГАНОВ»**

**17 мая 2022 г.**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**«ICHKI KASALLIKLARNI DIAGNOSTIKASI  
VA DAVOLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI»  
XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI  
TEZISLAR TO‘PLAMI  
17 MAY 2022 YIL, TOSHKENT**



**СБОРНИК ТЕЗИСОВ  
МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ  
КОНФЕРЕНЦИИ «АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ДИАГНОСТИКИ  
И ЛЕЧЕНИЯ ЗАБОЛЕВАНИЙ ВНУТРЕННИХ ОРГАНОВ»  
17 МАЯ 2022 ГОДА, ТАШКЕНТ**

## REAKTIV ARTRIT BILAN CHALINGAN BEMORLARDA TUZILMAVIY BUZILISHLARNING O'ZIGA XOSLIGI

XALMETOVA F.I., AXMEDOV X.S.

*Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston*

**Tadqiqot maqsadi.** ReAga chalingan bemorlarda tog'ay oligomer matriks oqsili (COMP) miqdoriga ko'ra qaratilgan davolashning shu kasallikni o'ziga xos klinik kechishini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqot manbalari va usullari.** Tadqiqotga 19–50 ( $35,6 \pm 10,3$ ) yoshdagi, kasallik davomiyligi  $3,1 \pm 1,4$  yilni tashkil qilgan. Urogenital etiologiyali ReAga chalingan 50 nafar bemorlar jalb qilingan. Tekshiruvni amalga oshirish uchun davolash taktikasiga ko'ra bemorlar ikkita guruxga taqsimlangan. Nazorat guruhiga ( $n=25$ ) bazis davo, ya'ni an'anaviy usul yordamida davolangan bemorlar kiritildi. Asosiy guruhni ( $n=25$ ) bazis davo bilan birgalikda, shikastlangan bo'g'imlarda erta destruktivlanishni davolashga qaratilgan usul qo'llanilgan bemorlar tashkil qilgan.

**Tadqiqot natijalari.** Tadqiqotga jalb qilingan bemorlar ayollar 58% ni tashkil qilgan. Anamnezdagi ma'lumotlarga ko'ra, ReAning ilk belgilari paydo bo'lganda bemorlarning o'rtacha yoshi  $30,1 \pm 5,3$  ni tashkil qilgan. Belgilarning paydo bo'lishi bilan ReA tashhis qo'yilgunga qadar bo'lgan o'rtacha davr 2,5 oydan iborat bo'lgan. Bo'g'imlar funktsional holatining buzilishlarini bo'g'imdagi yallig'lanish jarayonidagi o'ziga xos o'zgarishlar bilan bog'lash mumkin. Bemorlarida aniqlangan yallig'lanishning o'tkir faza ko'rsatkichlari va bo'g'imda kuzatiladigan ertalabki karaxtlik davomiyligi hamda yallig'langan bo'g'imlar soni yaqqolligi bo'g'imlarni funktsional imkoniyatlarini

chegaranish darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bemorlarning asosiy qismi oligoartritga shikoyat qilib kelgan. Jumladan, barcha gurux bemorlarida sinovit kuzatilgan va u asosan yakkalangan va ayrim paytlarda bursit yoki tendinit shakllardagi periartrit bilan birga kechgan. Bo'g'imlar funktsional holatining buzilishlarini ulardagi immun-yallig'lanish jarayoni tufayli yuzaga kelgan tipik strukturali o'zgarishlar bilan ham bog'lash mumkin. O'z navbatida, tizza bo'g'imi ikkilamchi osteoartrit inobatga olgan holda Leken algo-funksional indeksi baholangan va umumiy  $8,8 \pm 1,6$  dan iborat bo'lgan. Bemorlar davo usuli negizida qon zardobida SOMR miqdorini dinamikasi doirasida kuzatuv natijalariga ko'ra, uning miqdorini kamaytirish orqali kasallikning klinik yaxshilanishi va uning turg'unligiga erishilgan. Asosiy guruxda SOMR miqdori amalga oshirilgan yondoshuv asosida 3-oy yakunidan boshlab ishonarli darajada ( $r < 0,05$ ) kamayishi kuzatilgan, nazorat guruxida esa 6-oydan so'ng uning faqat statistik ahamiyatga ega bo'lmagan ( $r > 0,05$ ) kamayishiga moyillik bo'lgan.

**Xulosa.** Shunday qilib, ReAga chalingan bemorlarda tog'ayning erta destruktivlanishini paydo bo'lishi va uni erta davolash usuli bo'g'imdagi funktsional imkoniyatlarning yaxshilashda va saqlab qolishda hamda tog'ayda parchalanish jarayonlarni avjlanishini pasaytirish orqali kasallikning klinik kechishini yaxshilashda muhim o'rin egallaydi.

## SAMARKAND VILOYATIDA JIGAR NOALKOGOL YOG' XASTALIGINING KLINIK-LABORATOR KECHISHINI O'RGANISH

XASANOV O.G., ARIPOV SH.M.

*Samarqand davlat tibbiyot institute, Samarqand, O'zbekiston*

**Tadqiqot maqsadi.** Samarqand viloyatida jigar noalkogol yog xastaligi (JNYOX) klinik – laborator kechishini o'rganish.

**Materiallar va tadqiqot usullari.** Belgilangan vazifalarni hal qilish uchun 30 nafar JNYOX kasallari tekshiriladi. Ishda quyidagi tadqiqot usullari qo'llaniladi: klinik, laboratoriya. Tadqiqot ob'ekti steatoz va o't toshlari kasalligi bosqichida JNYOX bilan kasallangan bemorlar bo'ladi. Umumiy klinik tekshiruv shikoyatlarni aniqlashtirish, anamnezni yig'ish, organlar va tizimlarning holatini baholashni o'z ichiga olgan standart sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Tekshirilgan bemorlarning xolsizlik (15%), ish kobilyatining susayishi (17%), ung kovurga yoyi osti soxasidagi ogirlik xissi (21%), ogiz achchik bulishi (12%), kungil aynishi (5%) uchradi. Barcha

bemorlar qayta-qayta poliklinika va kasalxonada tekshiriladi. Keng qamrovli tekshiruvda qonning to'liq tekshiruvi, siydik tekshiruvi, bilirubin, ALT, AST, G-GT, gidroksidi fosfataza, xolesterin, triglitseridlar, albumin tekshiruvlari mavjud.

**Tadqiqot natijalari.** Birinchi marta qo'shma patologiyaning klinik va laborator tekshiruv xususiyatlari o't xalta tosh kasalligi bilan JNYOX o'rganildi. Steatoz bosqichida JNYOX kursining xususiyatlarini kompleks klinik va laboratoriya baholash amalga oshiriladi. Keng qamrovli tadqiqotda tarqalish darajasi o'rganiladi, shikoyatlar, klinik xususiyatlar, steatoz bosqichida JNYOX ning asosiy xususiyatlarini aks ettiruvchi gepatobiliar tizimning funktsional xususiyatlari tahlil qilinadi va taqqoslanadi. O't pufagidagi toshlarning birgalikda patologiyasi mavjudligi 100% hollarda